

**SAMARQAND VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



# **SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI**

**2022- yil  
yanvar-dekabr**



**Dastlabki ma'lumotlar**

## XIZMATLAR SOHASI

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari  
hajmi

22 734,9  
mlrd. so'm

Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari  
hajmi

5 579,2  
ming so'm

Xizmatlar  
sohasida kichik  
biznesning ulushi

68,0 %

Xizmatlar soha-  
sidagi korxonalar va  
tashkilotlarning ulushi

69,1 %

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida xizmatlar sohasi salmoqli o'ringa ega. O'zbekistonda eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri, uchinchi darajali sektor – xizmatlar sohasi hisoblanadi.


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 475,9** mlrd. so'mga oshib, **22 734,9** mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilga (**119,0 %**) nisbatan o'sish sur'ati **114,9 %**ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ushbu xizmatlarning ulushi **28,3 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlar (**23,5 %**), moliyaviy xizmatlari (**15,8 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**5,3 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**4,7 %**) qayd etildi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,5 %**ga yetdi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %da (2022- yil yanvar-dekabr)



| <b>Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari</b><br><i>(yanvar-dekabr)</i>           | <b>Hajmi, mlrd. so'm</b>     |                 | <b>O'sish sur'ati, %da</b> |
|--|------------------------------|-----------------|----------------------------|
|  | <b>2021- y. <sup>1</sup></b> | <b>2022- y.</b> |                            |
| <b>Xizmatlar – jami</b>  | <b>18 259,0</b>              | <b>22 734,9</b> | <b>114,9</b>               |
| <i>shu jumladan:</i>   |                              |                 |                            |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari  | 835,8                        | 1 059,5         | 126,0                      |
| Moliyaviy xizmatlar  | 2 613,2                      | 3 585,6         | 134,1                      |
| Transport xizmatlari   | 4 604,7                      | 5 333,6         | 108,2                      |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>  | 4 338,5                      | 5 059,2         | 108,9                      |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari  | 629,7                        | 860,9           | 114,9                      |
| Savdo xizmatlari   | 5 175,9                      | 6 428,5         | 110,9                      |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  | 466,8                        | 567,7           | 113,8                      |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar  | 1 003,5                      | 1 208,7         | 112,3                      |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar   | 341,2                        | 454,2           | 120,2                      |
| Ijara xizmatlari   | 548,4                        | 662,5           | 113,0                      |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar                          | 538,3                        | 672,3           | 112,0                      |
| Shaxsiy xizmatlar  | 761,3                        | 1 002,5         | 111,8                      |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 318,3                        | 341,9           | 100,5                      |
| Boshqa xizmatlar   | 421,9                        | 557,0           | 120,7                      |


*<sup>1)</sup> Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan*

**Savdo xizmatlari**  
(yanvar-dekabr)




**2022-yilning  
yanvar-dekabr  
oylarida  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining  
umumiy hajmida  
savdo xizmatlari  
ulushi**

**O'sish  
sur'ati, %da**




**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**



**Savdo xizmatlarining tarkibi, %da**  
(2022-yil yanvar-dekabr)


1. Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar.
2. Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari).
3. Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda.




**Transport  
xizmatlari**  
*(yanvar-dekabr)*

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi **5 333,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan bu xizmat turining o'lishi **8,2** %ni tashkil etdi.


**O'sish  
sur'ati, %da**



**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**



**Turlari bo'yicha transport xizmatlarining  
tarkibi, %da**  
*(2022- yil yanvar-dekabr)*



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 059,2** mlrd. so'mga yetdi.


2021-yilga nisbatan ushbu xizmatlar **8,9** %ga o'sdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **22,3** %ni tashkil etdi.

## Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, %da



**Avtomobil transporti  
xizmatlari**  
(yanvar-dekabr)

## O'sish sur'ati, %da




## Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm




**Moliyaviy xizmatlar**  
*(yanvar-dekabr)*

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **972,4** mlrd. soʻmga oshdi va **3 585,6** mlrd. soʻmga yetdi. Jami koʻrsatilgan xizmatlarda moliyaviy xizmatlarning ulushi **15,8** %ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʼati **134,1** %ni tashkil etdi.


**Oʻsish surʼati, %da**



**Xizmatlar hajmi, mlrd. soʻm**



**Moliyaviy xizmatlar tarkibi, %da**  
*(2022-yil yanvar-dekabr)*



Sugʻurta va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar


Sugʻurta boʻyicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat


**Aloqa va  
axborotlashtirish  
xizmatlari**  
*(yanvar-dekabr)*

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **1 059,5** mlrd. so‘m darajasida qayd etildi va 2021- yilga nisbatan o‘shish sur‘ati **126,0** %ni tashkil etdi.


**O‘shish sur‘ati,  
%da**



**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so‘m**




**Aloqa va axborotlashtirish  
xizmatlarining tarkibi, %da**  
*(2022- yil yanvar-dekabr)*




- Axborot xizmatlari
- Boshqa xizmatlar
- Kompyuterda dasturlashtirish bo‘yicha xizmatlar
- Telekommunikatsiya xizmatlari

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-dekabr)

**O'sish sur'ati,  
%da**



**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**




2022- yil yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 208,7** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **5,3** %ini tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **112,3** %ni tashkil etgan.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilda xizmatlar hajmi **1 003,5** mlrd. so'mni tashkil etgan. 2020- yilga nisbatan esa **34,4** %ga o'sish qayd etilgan.




## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-dekabr)

*O'sish sur'ati,  
%da*



*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm*



2022- yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **454,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,0** %ni tashkil etdi.


2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **120,2** %ni tashkil etgan.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilda ushbu xizmatlar hajmi **341,2** mlrd. so'mni yoki ularning umumiy hajmining **1,9** %ini tashkil etgan.




## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar *(yanvar-dekabr)*

*O'sish sur'ati,  
%da*



*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm*



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.




| Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari<br>(2022- yil yanvar-dekabr) | Hajm,<br>mlrd. so'm | O'sish<br>sur'ati,<br>%da |
|--|---------------------|---------------------------|
| <b>Samarqand viloyati</b>  | <b>22 734,9</b>     | <b>114,9</b>              |
| Samarqand shahri   | 9 713,3             | 116,8                     |
| Kattaqo'rg'on shahri   | 529,7               | 114,6                     |
| <i>tumanlar:</i>   |                     |                           |
| Oqdaryo  | 787,0               | 113,2                     |
| Bulung'ur  | 607,7               | 113,0                     |
| Jomboy   | 983,5               | 113,2                     |
| Ishtixon   | 808,8               | 113,1                     |
| Kattaqo'rg'on  | 894,0               | 112,8                     |
| Qo'shrabot   | 452,1               | 113,2                     |
| Narpay   | 751,6               | 112,8                     |
| Payariq  | 803,3               | 113,2                     |
| Pastdarg'om  | 1 394,7             | 112,6                     |
| Paxtachi   | 504,3               | 113,0                     |
| Samarqand  | 1 522,3             | 114,6                     |
| Nurobod  | 454,3               | 113,2                     |
| Urgut  | 1 530,8             | 114,5                     |
| Toyloq   | 997,5               | 114,4                     |

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr)

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 579,2** ming so'mga yetdi. 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **112,5** %ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati,  
%da



Xizmatlar hajmi,  
ming so'm



Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil bu – aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 66-235-79-35